

## О‘ЗBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLIK JAMIYATINI BARPO ETISH JARAYONIDA AXBOROT SOHASINI ISLOH QILISH, SO‘Z VA AXBOROT ERKINLIGINING AHAMIYATI

*Shodiyeva Aziza Zokir qizi*  
*NavDPI Tarix fakulteti “Milliy g‘oya,*  
*ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”*  
*yo‘nalishi 3 – kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyin fuqarolik jamiyatini barpo etishni o‘z oldiga maqsad qilib amalga oshirayotgan islohotlari, axborot sohasini isloh qilib fuqarolarning so‘z erkinligini ta’minlashga e’tibor berilayotgani tahlil qilingan.

**Annotation:** This article analyzes the reforms implemented by the Republic of Uzbekistan after gaining independence with the goal of establishing a civil society, the attention paid to ensuring the freedom of speech of citizens by reforming the information sector.

**Аннотация:** В данной статье анализируются реформы, реализуемые Республикой Узбекистан после обретения независимости с целью формирования гражданского общества, уделяется внимание обеспечению свободы слова граждан путем реформирования информационной сферы.

**Kalit so‘zlar:** Axborot, Konstitutsiya, gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, teleradiokompaniya, Qonun, Farmon, Qaror.

**Key words:** Information, Constitution, newspapers, magazines, newsletters, bulletins, television and radio company, Law, Decree, Decision.

**Ключевые слова:** Информация, Конституция, газеты, журналы, бюллетени, бюллетени, телерадиокомпания, Закон, Указ, Постановление.

### Kirish

Axborotlashgan jamiyat sharoitida axborotning inson va jamiyat hayotiga ta’siri oshib bormoqa. Ayni paytda axborotdan turli xil maqsadlarda foydalanishga urinishlar mavjud. Insoniyat axborot texnologiyalari yordamida ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatish bilan chegaralanmay, jamiyatda iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalarni boshqarish, ularga ta’sir etish va istiqbolini belgilash imkoniyatiga ham ega bo‘lib bormoqa.

“Kishilar o‘rtasida xabar yetkazishni ta’minlashga qodir hisoblash texnikasi, axborot aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek, boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti, faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Hozirgi kunda ilmiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy

rivojlanish o'rtasida mutanosiblik mavjud bo'lgan jamiyatgina har tomonlama uyg'un rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o'zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa axborotga bo'lgan talab hamda ehtiyojini to'liqroq qondirishga intiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning o'lchami mazkur sohalarda to'plangan va almashinayotgan axborotlar, ularning almashinish sur'ati va o'zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi" [1].

Ommaviy axborotning asosiy ma'nosini anglatuvchi ma'lumot yig'ish, qayta ishlash va tarqatish hamda tezkor xabarlar yozib jamiyatni ogoh etish bilan mashg'ul kishilar Amir Temur davrida ham bo'lganligi ma'lum. Bu haqida Sohibqironning "Qissai Temur" da: " Amr etdimkim, har sarhad va viloyat, lashkar va mamlakatg'a bir axbornavis (xabarlar yozuvchi, ya'ni muxbir) tayin etgaylarkim, sipoh va hokim va ra'iyat va begona lashkar va mol va manolning mudoxil va maxorij va begona odamlar va karvonning kirmak va chiqmog'i va hamsoya podshohlar mamlakatining axbori va alarning a'moli va af'oli va uzoq baladalardin dargohimg'a yuz qo'yg'on ulamo va fozil odamlarning ishlar va so'zlarin rostlig' va durustlig' bila yozib dargohg'a yiborgaylar", degan fikri buning dalilidir.

O'zbekiston Respublikasida OAV faoliyati uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy shart-sharoitlar shakllandi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni maqsad qilgan, Prezident Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: "Jamiyatimizda demokratik qadriyatlarni qaror toptirish, fuqarolarimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, dunyoda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, voqea-hodisalar haqida tezkor va haqqoniy ma'lumotlar yetkazish borasida, matbuot ahlining fidokorona mehnat qilayotganligini xalqimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi" [2].

Avvalo, mamlakatimizda axborot sohasida olib borilayotgan siyosat O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan. Jumladan, Konstitutsiyaning 33-moddasida "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi" [3] degan prinsip asosida amalga oshirilishini qayd etish zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XV bobi Ommaviy Axborot vositalari deb nomlangan bo'lib, ikkita modda 81, 82 moddalarda huquqiy prinsiplar belgilangan, jumladan, 81 –

moddasida “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar.

Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir”[4]deyiladi, 82 – moddasida “Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi”[5] deb Ommaviy Axborot vositasi soha xodimlarini huquqiy koafolati va o‘z sohasidagi javobgarligini ham belgilangan.

Shu ma’noda Prezident Shavkat Mirziyoyev ommaviy axborot vositalarining fuqarolik jamiyatidagi roliga alohida to‘xtalib: “Bugun biz dunyodagi uzoq-yaqin davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlab, yurtimizdagi demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirishga intilar ekanmiz, boshqa sohalar qatori ommaviy axborot vositalari faoliyati bo‘yicha ham hali ko‘p ish qilishimiz kerakligini yaxshi tushunimiz. Ommaviy axborot vositalari so‘zda emas, amalda “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga ko‘tarilishi zarur. Bu – zamon talabi, islohatlarimiz talabi” [6] deb, ta’kidlagani bejiz emas.

Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video-, kinoxronikal dasturlar, umum foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir [7].

**Mustaqillik davrida mamlakatimizdagi OAVlarining qiyofasi, tizimdagi tarkibiy o‘zgarish va yangilanishlar quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:**

1. OAVning soni va sifati keskin ortib bormoqda. 1991 yilda OAV umumiy soni 395 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1994 yilda Respublikada 475 ta OAV, ulardan 384 ta gazeta, 66ta jurnal, 19 ta telestudiya, 3 ta kabel televideniya, 2 ta radiostudiya va bitta agentlik faoliyat ko‘rsatgan, 2004 yil 1 yanvargacha bo‘lgan statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 12 tilda jami 866 ta ommaviy axborot vositalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Shundan 611 ta gazeta, 165 ta jurnal, 43 ta xususiy televidenie, 29 ta kabelli televidenie, 4 ta axborot agentligi va 12 ta xususiy, 1 davlat FM radiokanali, 1 ta teleradiokompaniya mamlakat ijtimoiy siyosiy faoliyatida qatnashgan, bugunga kelib, 1,4 mingtaga yaqin ommaviy axborot vositalari O‘zbekiston matbuot va axborot agentligida ro‘yxatga olinganligini aytish zarur. Ulardan 709 gazeta, 289 jurnal, 95 TV i radio. Bosma nashrlar, tele- i radiokanallar bilan bir vaqtda publitsistik faoliyatni veb-saytlar ham olib bormoqdalar, 2020 yilda ommaviy axborot vositalarining soni qariyb

4 barobar ko‘payib, 1500 taga yetgani ushbu tarmoqda o‘shish, o‘zgarish jarayonlari izchil davom etayotganidan dalolat beradi.

2. Mustaqillik yillaridamamlakatimizda davriy bosma nashrlarning internet versiyalari, internet jurnalistika vujudga keldi va u jadallik bilan rivojlanib bormoqda. 2020- yil yakunida O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 22,5 mln.ni tashkil etib, shundan 19 mln.i mobil internetdan foydalanadi. 2020- yil holatiga mobil aloqadan foydalanuvchilar soni 24,8 mln kishini tashkil etdi[12]. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni 2020- yil 18-fevral holatiga 3,2 mln.ni tashkil etib, shu davrdagi doimiy aholi soniga nisbatan 9,6 %ni tashkil etgan va bu raqam yiliga o‘rtacha 1 mln.ga o‘shib bormoqda. Facebook ijtimoiy tarmog‘idan bir oy davomida foydalanuvchilar (MAU) soni 2019- yil holatiga 3,094 mln.ni tashkil etgan bo‘lsa, Instagram 2,30 mln., Telegram 18 mln. foydalanuvchiga ega. Youtube tarmog‘idagi ko‘rishlar soni oyiga 25 mln.ni tashkil etadi. TikTok ilovasi esa, 2020- yil iyun oyida mobil qurilmalarga eng ko‘p o‘rnatilgan ilovaga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Ayniqsa, hayot va kasb tajribangizni yoshlarga o‘rgatish, ularni zamonaviy fikrlaydigan, Vatan va xalq manfaatini muqaddas deb biladigan, sog‘lom va barkomol insonlar etib tarbiyalashda ommaviy axborot sohasida ishlaydigan xodimlarni ko‘pchilikka o‘rnak va namuna bo‘lsazilar, deb ishonaman [8] degan edilar.

Ommaviy axborot vositalariga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosatni, yurtimizda va xorijda sodir bo‘layotgan voqealarni fikrlar xilma-xilligini hisobga olgan holda, yanada faolrok, yoritish uchun zarur shartsharoitlar yaratilmoqda. Nodavlat ommaviy axborot vositalarining tobora kengayib borayotgan tarmog‘i faoliyatining, mualliflik huquqi va intellektual mulk himoyasining, shuningdek, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy etishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirilmoqda. Shu boisdan ham mamlakatimizda erkin faoliyatga asoslangan OAV shakllantirildi va uning faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida avvalo, xuquqiy kafolatlarni yaratishga kirishildi.

1997 yilda “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, 2003 yilda “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi, 2004 yilda “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, 2007 yilda “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi, 1998 yilda “Reklama to‘g‘risida”gi, 2015 yilda “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qabul qilingan qonunlar yuqoridagi fikrimizning amaliy tasdig‘idir. 1999 yil O‘zbekiston jahon tillari universitetida Xalqaro jurnalistika fakultetining tashkil etilishi o‘zbek jurnalistikasi tarixida muhim voqea hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda “Xalq qabulxonalari” Konstitutsiyamizning 2- moddasida “Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar” degan ezgu tamoyilni amalda ro‘yobga chiqarish uchun tashkil etiladigan ochiq muloqotning muhim mehanizimi bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyot va manbalar:**

1. I.Ergashyev, M. Atavullayev, A. Xudaynazarov. Globallashuv va g‘oyaviy – mafkuraviy tahdidlar. Toshkent – 2021, 326-327 betlar.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: O‘zbekiston, 2020.- 484- bet.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (mazkur yangi tahriridagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan). T.: “O‘zbekiston”, 2023.- 23– bet.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (mazkur yangi tahriridagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan). T.: “O‘zbekiston”, 2023.- 46– bet.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (mazkur yangi tahriridagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan). T.: “O‘zbekiston”, 2023.- 46– bet.
6. Sh.M. Mirziyoyev. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: O‘zbekiston, 2020.- 485-486 betlar.
7. I. Ergashyev va boshqalar. Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2019, 125 – bet.
8. Sh.M. Mirziyoyev. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: O‘zbekiston, 2020.- 487- bet.